

**TEXNIKA VA TEKNOLOGIYALARDAGI IZLANISHLAR, IXTIROLAR  
VA ISHLAB CHIQARISH MAHSULI**

**Umarova Amina Norqul qizi**

“Texnologik ta’lim” yo’nalishi 2-kurs talabasi Navoiy davlat pedagogika instituti

Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. **D.Kamalova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnika va texnologiyalardagi izlanishlar, ixtirolar va ishlab chiqarish mahsuli bo’lgan texnologiyadagi mahsulotlar (jihozlar) haqida bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** texnika, texnologiya, ixtiro, izlanish, ishlab chiqarish.

**TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL RESEARCH, INVENTIONS AND PRODUCTS**

**Abstract.** This article describes technological products (devices) that are the product of technical and technological research, inventions and production.

**Key words:** technique, technology, invention, research, production.

**ТЕХНИЧЕСКИЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,  
ИЗОБРЕТЕНИЯ И ПРОДУКЦИЯ**

**Абстрактный.** В данной статье описаны технологические изделия (устройства), являющиеся продуктом технических и технологических исследований, изобретений и производства.

**Ключевые слова:** техника, технология, изобретение, исследование, производство.

Texnologiya fani va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang’ich mакtabda butun ta`lim-tarbiya tizimi hamda barcha o’quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o’z navbatida, oliy ta’lim tizimida o’qitiladigan texnologiya va uni o’qitish metodikasi fani oldida muhim maqsad va vazifalarni qo’yadi. Jumladan, mazkur fanni o’qitishdan asosiy maqsad: talabalarni boshlang’ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o’qitish usullari, ta’limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari texnologiya fanini o’qitish jarayonida nazariy hamda amaliy tadbiq etish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Texnika-moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning extiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta'sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmui. Asosiy vazifasi — inson mehnatini yengillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish. U tabiat resurslaridan samarali foydalananishga, Yer qa'rini, Dunyo okeanini, kosmik fazoni o'zlashtirishga imkon beradi.

Texnologiya — termini fanga birinchi marta 1872-yili kiritilgan bo'lib, u grekcha «texnos» — san'at yoki hunar va «logos» — fan so'zlaridan tarkib topgan. Shunday qilib, bu so'zning to'liq ma'nosi «hunar fani» demakdir. Bu fan xomashyolardan keng miqyosda xalq iste'mol buyumlari va mahsulotlariga hamda ishlab chiqarish vositalariga aylantirish jarayonlarini o'rgatadi.

Bugungi kunga kelib texnikani rivojlantirish fan va texnika taraqqiyotining muhim shartidir. Texnikani rivojlantirishda fan yutuqlaridan keng foydalilanadi. Hozirgi zamon fani, ishlab chiqarishning muhim yutuqlari tabiiy va Texnika fanlari kashfiyotlariga tayanadi.

**Ishlab chiqarish** — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar) ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element — mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'li-shini taqozo etadi. Ijtimoiy Ishlab chiqarish ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari ishlab chiqarishdan tashkil to-padi. Bu bo'limlarning har biri ko'plab xo'jalik tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularda turli Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari yaratiladi. Birinchi bo'limning ikkinchi bo'limga nisbatan ustunligi kengaytirilgan takror Ishlab chiqarish iqtisodiy qonuning ifodasidir. Ishlab chiqarish faqat mahsulot Ishlab chiqarishdan iborat bo'lmay, balki taqsimot, ayrboshlash va iste'molni ham o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, Ishlab chiqarish qurollarining o'zgarishi va mukammallahishidan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi jamiyat hamma a'zolarining farovonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi.

Insoniyat borki har doim o'z ehtiyojlari uchun izlanishdan to'xtab qolmaydi, misollar bilan keltiradigan bo'lsak,



A)



B)



C)

A) Suratda: doktor Engelbart tomonidan ixtiro qilingan va uning ikki sherigi tomonidan qurilgan birinchi kompyuter sichqonchasining prototipi.

B) 1866-yilda qog‘ozlarni biriktiruvchi maxsus moslama yaratdi.

C) Lampochkalar ixtirosi 1800-yillarda Tomas Edison tomonidan rivojlantirildi; 1500 soat davomida kuymasdan yonib turadigan lampa (1879-yilda ixtiro qilgan) ixtirochisi faxriy unvoni unga tegishli.

Vaqtlar o’tgani sayin tajribalar ortib, olim insonlar tomonidan kashfiyotlar ketidan ulkan izlanishlar va ixtiolar olib borilmoqda. Texnikalarni har tomonlama qulay va hamyonbob qilib ishlab chiqarishning samarali tomonlari o’ylab chiqilmoqda. Bugungi kunimizga kelib minglab zamonaviy, qulay, elektrekanomik va ixcham texnikalar ommaga tadbiq etilmoqda. XXI asr “Zamonziy texnologiyalar asri” bo’lganligi bois texnika va texnologiyalardan keng foydalanilmoqda (elektr energiyasi, oddiygina o’yinchoqlar, televizorlar, fotoapparatlar, tikuv mashinkalari, avtomabillar, kampyuterlar, smartfonlar, telefonlar, xolodilniklar, changyutgichlar, kir yuvish moshinalari) va bu texnika texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur etishimiz juda ham qiyin. Ixtiolar, izlanishlar va ishlab chiqarish qanchalik sifatli va ko’p bo’lsa, xalqimiz boy va hayotimiz farovon bo’ladi. Shunday ekan kelajagimiz ravnaqi yurtimiz farovonliligi uchun izlanishdan, bizga yaratilayotgan buyuk imkoniyatlardan keng foydalanishdan to’xtab qolmasligimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Ilmiy kashfiyot va ixtiolar” telegram kanali.
2. Д.И.Камалова, Г.Турлибаева. “Современные инновационные методы в подготовке будущего учителя”. “Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы” научный журнал. Таганрог. 2016. №2(17).
3. D.I.Kamalova, Y.O’.Mardanova. “The role of pedagogical competencies in improving technical knowledge of students in the higher education system”. International scientific-online conference “Innovation in the modern education system”. Washington, USA. Part 12. November 25. 2021. pp. 434-437.
4. H.O.Uzoqov, A.R.Jo’rayev, Sh.H.Quliyeva, M.N.Karimova. “Texnik ijodkorlik va dizayn”. T. Fan. 2022.

5. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. “Zamonaviy innovatsion ta’lim”. “Journal of universal science research” International scientific journal. Volume 1. Issue 1. 2023. pp. 187-189.
6. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. Texnologiya fanini o’qitishning muhim jihatlari. Conference of universal science research 2023. Volume 1. Issue 10. 19 october. 2023. Tashkent. Uzbekistan. pp. 111-113.
7. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. “Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish”. “Ijodkor o’qituvchi” ilmiy-uslubiy jurnali. №34. 5-dekabr. 2023. Toshkent. 67-68 bet.
8. D.I.Kamalova, O.D.O’rinova, S.O.Hamidova. “Mustaqil ta’limni tashkil etish va unga qo’yiladigan talablar”. “Journal of universal science research”. Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.
9. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. “Zamonaviy innovatsion ta’lim”. “Journal of universal science research” International scientific journal. Volume 1. Issue 1. 2023. pp. 187-189.
10. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. Texnologiya fanini o’qitishning muhim jihatlari. Conference of universal science research 2023. Volume 1. Issue 10. 19 october. 2023. Tashkent. Uzbekistan. pp. 111-113.
11. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. “Zamonaviy axborot texnologiyalari”. Conference on universal science research 2023. Volume 1. №1. 2023. pp. 76-79.
12. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. “Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish”. “Ijodkor o’qituvchi” ilmiy-uslubiy jurnali. №34. 5-dekabr. 2023. Toshkent. 67-68 bet.
13. D.I.Kamalova, O.D.O’rinova, S.O.Hamidova. “Mustaqil ta’limni tashkil etish va unga qo’yiladigan talablar”. “Journal of universal science research”. Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.
14. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. “Professional ta’lim tizimini rivojlantirish zarurati va fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minalash asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlari”. “Новости образования: Исследование в XXI веке”. №17(100). Россия. Январь. 2024. Часть 1. 10-11 стр.
15. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. “Ta’lim tizimida kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari”. “Journal of science-innovative research in Uzbekistan”. Volume 2. Issue 2. February. 2024. pp. 23-28.